

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQIDAGI BOYLIKNI OSHIRISHDA ERTAKLARNING O’RNI

Abdumalikova Nilufar Abdumannon qizi

Qo’qon universiteti Ta’lim fakulteti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi

Sanginova Gulnoza Bahodirovna

Abdumalikovanilufar.2006@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20483386>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning og’zaki nutqini shakllantirishda ertaklarning o’rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Ertaklar bolaning dunyoqarashi, estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, uning so’z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalarni o’zlashtirish hamda muloqot ko’nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Maqolada ertaklarni pedagogik jarayonga to’g’ri va maqsadga muvofiq qo’shish usullari, shu orqali bolalarning muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, ertaklar vositasida bolaning emotsional holati, hissiy dunyosi va axloqiy fazilatlarini ham tarbiyalanishi mumkin.

Kalit so’zlar: Maktabgacha ta’lim, dialogik nutq, og’zaki nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, so’z boyligi, milliy qadriyatlar, barkamol shaxs.

KIRISH

Ertak madaniyat elementlaridan biri va eng avvalo uning estetik tarkibiy qismidir. U milliy-etnik madaniyatga, folklor ildizlariga asoslanib, boy ijtimoiy, axloqiy va pedagogik salohiyatga ega. Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalar davri kuchayib borayotgan bir paytda, bolalarda og’zaki nutqni rivojlantirish, samarali muloqot ko’nikmalarini shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdirish orqali ijtimoiy ong va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Dunyoqarashi va so’z boyligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim davrida bolalarga sifatli ta’lim berish, ertaklar asosidagi turli metodikalardan foydalanib, og’zaki nutqini rivojlantirish — natijada esa ular tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqot qila oladigan, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxs sifatida ulg’ayadi. [1]

Maktabgacha yosh davri bolalarning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy ko’nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari keng tarqalgan bugungi kunda bolalarning jonli muloqoti va badiiy nutqni o’zlashtirish imkoniyatlari qisqarib bormoqda. Shu sababli, ertaklar orqali bolalar nutq boyligini oshirish, ularning so’z boyligini kengaytirish va to’g’ri, ravon nutqni shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Amaliyotda maktabgacha ta’lim muassasalarida ertaklardan foydalanish yetarli darajada tizimli yo’lga qo’yilmagan. Ko’plab tarbiyachilar ertaklarni faqat o’qib berish bilan cheklanib, ularning nutq rivojlantirishdagi imkoniyatlaridan to’liq foydalanmayapti. Natijada bolalarda so’z boyligi yetarli darajada rivojlanmaydi, mustaqil fikr bildirish va hikoya qilish ko’nikmalari sust shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ertaklardan samarali foydalanish yo’llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kerak. Shu orqali bolalarning so’z boyligini

oshirish, og'zaki nutqini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash va hikoya qilish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Ertaklar odatda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, jasorat, adolat, do'stlik kabi mavzularni yoritadi. Bola aynan shu mazmun orqali o'zini ijobiy qahramon bilan qiyoslaydi, o'zida nutqiy faollikni namoyon etishdan qo'rqmaydi, aksincha o'zini namoyish qilishga intiladi. Ertak sahnalashtirilganda esa bolalar so'z nutqiga mas'uliyatliroq yondashadi. Qahramon rolini bajarish jarayonida ular nutqining ravonligi, intonatsiyasi, talaffuzi haqida ongli fikrlay boshlaydilar. Bu jarayon nutq madaniyatining muhim bo'lgan fonetik va ifodali nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Ertak asosidagi mashg'ulotlarning samaradorligi shuni ko'rsatadiki, ushbu metod nutq madaniyatining barcha tarkibiy qismlarini — fonetika, leksika, grammatika, mantiqiy izchillik, dialogik nutq, monologik nutq, ifodali nutq kabi jihatlarni kompleks tarzda rivojlantiradi Ertaklar asosida tashkil etilgan syujetli-rolli o'yinlar ayniqsa o'rta guruh bolalari uchun muloqotga kirishish, rollarga kirish va nutqiy harakatni faol qo'llashda muhim o'rin tutadi. Bu orqali bola ertakdagi vaziyatni jonlantirib, unda qatnashuvchi qahramonlar tilida gapirishga intiladi. [2]

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”-degan edi. [3]

Bolaning nutqiy rivoji va muloqotga kirishish salohiyati, asosan, mazmunan boy va ifodali og'zaki nutq orqali namoyon bo'ladi. Bunday ravon nutq o'zining mantiqlilik, izchillik va mazmunlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ko'nikmalarning shakllanishi, avvalo, bolaning o'zlashtirgan so'z boyligi va lug'aviy zahirasiga, shuningdek, uning intellektual, estetik va emotsional rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv, ularning bilishga oid ehtiyojlari, muammolari va imkoniyatlariga samarali javob qaytara olish qobiliyatini rivojlantirishni, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni shakllantirishni, boshqalar bilan muloqot qilishni hamda shaxsiy “Men” konsepsiyasini barpo etishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari:

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy (“Men” konsepsiyasini qurish)
- Bilish

Kommunikativ kompetensiya – “atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati”. Bolalarda bu kompetensiyani shakllantirishda og'zaki nutq, ayniqsa dialogik nutqning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ertaklar bolada muloqotga kirishish, savol-javob qilish, fikr almashish va o'z fikrini izchil ifodalash kabi ko'nikmalarni shakllantirish uchun tabiiy va qiziqarli vosita bo'lib xizmat qiladi. [4]

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq boyligini oshirishda ertaklar beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan samarali pedagogik vositalardan biridir. Ertaklar orqali bolalar nafaqat yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi, balki ularni to'g'ri talaffuz qilish, o'rinli qo'llash hamda mazmunli gap tuzish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ertak tinglash va qayta hikoya

qilish jarayonida bolalarning og'zaki nutqi faollashadi, lug'at boyligi kengayadi, nutqning grammatik tuzilishi shakllanadi. Bundan tashqari, ertaklar bolalarning tasavvur dunyosini boyitib, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali bolalar mantiqiy fikrlashi va o'z fikrini erkin ifodalashga o'rganadi. Ertaklar bolalarda eslab qolish, diqqatni jamlash hamda tinglash madaniyatini ham rivojlantiradi. Ertaklardan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishning eng muhim va samarali yo'llaridan biridir. U nafaqat nutq boyligini oshiradi, balki bolalarning umumiy intellektual va ma'naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. V.J. Seitmuratova "экономика и социум" №6(133)-2 2025
2. Ergasheva Dilnavoz Ravshanovna multidisciplinary scientific journal. December, 2025
3. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии 1972. -№ 9.
4. Ilm yo'li. 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash uchun rivojlantiruvchi, ta'limiy-tarbiyaviy variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) toshkent-2022. 33 bet.
5. O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligining «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashr) Tosh-2022.
6. Qodirova F. Bolalar nutqi va uni shakllantirish yo'llari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.